O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI

Qo‘lyozma huquqida
UDK: 334.75(575.1)

RAIMQULOV BEKZOD ABDIQAYUM O‘G‘LI

HUDUDLARDA KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIKNI RIVOJLANTIRISH MEXANIZMLARI

70411302 – Biznesni boshqarish (Master of Business administration – MBA) mutaxassisligi

Magistr akademik darajasini olish uchun yozilgan

DISSERTATSIYA

Ilmiy rahbar: i.f.d., prof. D.S.Qosimova

Toshkent – 2025

Dissertatsiya Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti "Biznes boshqaruvi" kafedrasida bajarilgan.

Ilmiy rahbar _____ **i.f.d., prof. D.S.Qosimova**

Kafedra mudiri _____ **i.f.d., prof. U.V.Gafurov**

Kechki ta'lim va magistratura fakulteti dekani _____ **i.f.d., prof. J.I.Karimqulov**

Men, Raimqulov Bekzod Abdiqayum o'g'li ushbu magistrlik dissertatsiya ishini mustaqil bajardim. Ko'chirmachilik holati yo'qligiga javob beraman. Ko'chirmachilikka yo'l qo'yilgan holatida magistrlik dissertatsiya ishi Yakuniy davlat attestatsiya komissiyasi raisi taqdimnomasiga asosan bekor qilinishi va "Qoniqarsiz" baho qo'yilishidan xabardorman.

МАГИСТРЛИК ДИССЕРТАЦИЯСИ ДАСТЛАБКИ ҲИМОЯСИ
33 - СОНЛИ БАЁННОМАСИ

2025 йил "7" апрель

Kechki ta'lim va magistratura факультети Магистратура босқичи 2-курс
"Biznesni boshqarish (Master of Business administration-MBA)"
мутахассислиги MBA-01-гуруҳи талабаси
Raimqulov Bekzod Abdiqayum o'g'li нинг
"Hududlarda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish mexanizmlari"
мавзусидаги магистрлик диссертациясининг дастлабки ҳимояси натижаларига кўра қуйидаги камчиликлар қайд этилди:

1. Ишнинг тегишларисе нигера-
циясини ораташ керак
2. Диссертацияда илмий уюш-
маларсе ўзгаришлар зарур

Магистрлик диссертацияси юзасидан хулоса (КИМКда ҳимояга **тавсия этилади/тавсия этилмайди**)

Комиссия раиси: Рахимов Ў. – кафедра мудири

Комиссия аъзолари: Тоғаймбетова Д.С.
Худойбердиев Ф.
Юлдашев А.

– котиб

Изох: Дастлабки ҳимояга киришда талабанинг магистрлик диссертацияси, плагиатга текширилганлиги, илмий раҳбар хулосаси, ички тақризчиларнинг тақризлари, камида 2 та илмий мақоласи (тезис) нусхалари бўлиши талаб этилади.

ANNOTATSIYA

Ushbu magistrlik dissertatsiyasida O‘zbekiston Respublikasi hududlarida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishning nazariy, amaliy va takomillashtirishga doir jihatlari kompleks tarzda o‘rganilgan. Mamlakatimizda bozor iqtisodiyotiga o‘tish davrida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik iqtisodiy barqarorlikni ta’minlash, bandlik darajasini oshirish, aholining daromad manbalarini kengaytirish, ijtimoiy tenglik va hududiy rivojlanish muvozanatini ta’minlashda muhim omil sifatida e’tirof etilmoqda. Tadqiqotning birinchi bobida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishning nazariy asoslari yoritilgan bo‘lib, ularning iqtisodiy va ijtimoiy ahamiyati, hududiy taraqqiyotga qo‘shayotgan hissasi asoslab berilgan. Shuningdek, kichik biznesga ta’sir etuvchi ichki va tashqi omillar chuqur tahlil qilinib, ularning barqaror faoliyat yuritishiga qanday ta’sir ko‘rsatayotgani ko‘rsatib o‘tilgan. Bundan tashqari, kichik biznes subyektlarining tashkiliy-huquqiy shakllari va ularning o‘ziga xos xususiyatlari o‘rganilgan. Ikkinchi bobda Toshkent shahridagi kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning amaliy holati chuqur tahlil qilinadi. Xususan, oxirgi yillarda poytaxtda kichik tadbirkorlik subyektlarining rivojlanish dinamikasi, ularning iqtisodiy ko‘rsatkichlari, faoliyat yo‘nalishlari va davlat tomonidan ko‘rsatilayotgan qo‘llab-quvvatlov mexanizmlari statistik ma’lumotlar asosida yoritilgan. Dissertatsiyaning uchinchi bobi hududlarda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni takomillashtirish yo‘llarini ishlab chiqishga bag‘ishlangan. Unda kichik biznes subyektlarini qo‘llab-quvvatlashda yangi yondashuv va mexanizmlarni ishlab chiqish zarurati asoslab berilgan. Innovatsion texnologiyalar va raqamli yechimlarni joriy etish orqali biznes jarayonlarini soddalashtirish va samaradorligini oshirish masalalari ko‘tarilgan. Dissertatsiya yakunida o‘tkazilgan ilmiy-amaliy tahlillar asosida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarini hududiy darajada yanada rivojlantirish, ularning iqtisodiyotdagi ulushini oshirish, davlat va mahalliy hokimiyatlar o‘rtasida samarali hamkorlikni yo‘lga qo‘yish hamda raqobatbardoshlikni kuchaytirishga qaratilgan taklif va amaliy tavsiyalar berilgan.

ABSTRACT

This master's thesis comprehensively studies the theoretical, practical and improvement aspects of the development of small business and private entrepreneurship in the regions of the Republic of Uzbekistan. In our country, during the transition to a market economy, small business and private entrepreneurship is recognized as an important factor in ensuring economic stability, increasing employment, expanding sources of income for the population, ensuring social equality and balance of regional development. The first chapter of the study covers the theoretical foundations of the development of small business and private entrepreneurship, substantiates their economic and social significance, and their contribution to regional development. Also, an in-depth analysis of internal and external factors affecting small business is carried out, and how they affect their sustainable operation is shown. In addition, the organizational and legal forms of small business entities and their specific features are studied. The second chapter provides an in-depth analysis of the practical situation of small business and private entrepreneurship in Tashkent. In particular, the dynamics of the development of small business entities in the capital in recent years, their economic indicators, areas of activity and support mechanisms provided by the state are covered on the basis of statistical data. The third chapter of the dissertation is devoted to the development of ways to improve small business and private entrepreneurship in the regions. It substantiates the need to develop new approaches and mechanisms to support small business entities. The issues of simplifying business processes and increasing their efficiency through the introduction of innovative technologies and digital solutions are raised. Based on the scientific and practical analyses conducted at the end of the dissertation, proposals and practical recommendations are given aimed at further developing small business and private entrepreneurship entities at the regional level, increasing their share in the economy, establishing effective cooperation between state and local authorities, and strengthening competitiveness.

MUNDARIJA

Annotatsiya.....3

KIRISH 6

I BOB. HUDUDLARDA KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIKNI RIVOJLANTIRISHNING NAZARIY ASOSLARI....12

1.1. Hududlarda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishning iqtisodiy va ijtimoiy ahamiyati.....12

1.2. Hududlarda kichik biznesni rivojlantirishga ta'sir etuvchi omillar.....19

1.3. Kichik biznes subyektlari faoliyatini tashkil etish va ularning huquqiy shakllari.....26

II BOB. TOSHKENT SHAHRIDA KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIKNI RIVOJLANTIRISHNING AMALIYOTDAGI HOLATI 34

2.1. Toshkent shahrida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning rivojlanish dinamikasi 34

2.2. Toshkent shahrida kichik tadbirkorlik subyektlarining iqtisodiy ko'rsatkichlari tahlili 42

2.3. Hududlarda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishga qaratilgan davlat siyosati 49

III BOB. HUDUDLARDA KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK FAOLIYATINI TAKOMILLASHTIRISH YO'LLARI.....56

3.1. Kichik biznes subyektlarini qo'llab-quvvatlashda yangi mexanizmlar ishlab chiqish.....56

3.2. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik faoliyatiga yangi texnologiyalar va innovatsiyalarni joriy etish.....63

3.3. Kichik tadbirkorlik subyektlarini rivojlantirish istiqbollari 70

XULOSA 76

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI 79

KIRISH

Magistrlik dissertatsiyasi mavzusining asoslanishi va uning dolzarbligi. O‘zbekistonda ijtimoiy yo‘naltirilgan bozor iqtisodiyotini barpo etishning asosiy maqsadlaridan biri kichik biznesni ustuvor darajada rivojlantirishdan iborat. Bu maqsadni amalga oshirish uchun bosqichma-bosqich iqtisodiy islohotlar o‘tkazilib kelinmoqda, kichik biznesning rolini oshirish uchun yirik institutsional asoslar yaratildi. Kichik biznes faoliyatini tashkil etish, erkin faoliyat yuritishini kafolatlovchi huquqiy-me’yoriy hujjatlar, kichik biznesga ko‘maklashuvchi bozor infratuzilmasi shakllantirildi. Natijada bugungi kunga kelib, kichik biznes sub’ektlari mamlakatimiz iqtisodiyotining barcha jabhalarida, mashinasozlik mahsulotlarini ishlab chiqarishda, iste’mol tovarlari, qishloq xo‘jaligi va oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqarishda, servis xizmatlari ko‘rsatish va turizm kabi sohalarda faoliyat ko‘rsatmoqdalar. Mamlakatimizda qisqa davrda to‘plangan tajribalarimiz kichik biznes barqaror iqtisodiy o‘sishning muhim omili ekanligini isbotladi.

So‘nggi yillarda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biriga aylangan bo‘lib, bu borada keng ko‘lamli islohotlar amalga oshirilmoqda.

Xususan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev tadbirkorlikni mamlakat taraqqiyoti uchun strategik ustuvor yo‘nalish sifatida e’tirof etar ekan, quyidagi fikrlarni bildirgan:

“Tadbirkorlikni rivojlantirish – biz uchun strategik vazifa. Bizning tayanchimiz ham, suyanchimiz ham, eng katta kuchimiz ham shu sohada mujassam. Shu bois tadbirkorlarni qo‘llab-quvvatlash markazdan tortib eng quyi bo‘g‘ingacha – barcha rahbarlarning kundalik ishi bo‘lishi shart. Ayniqsa, joylarda hokimlar har bir tadbirkor bilan ko‘proq muloqot qilib, korxonalarga borib, ularning dardi bilan